

LI BO SHE'RLARIDAGI BADIY TIMSOLLAR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352044>

BEKMURODOV Bexruz

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A.

*This article is about Chinese popular poet Li Bai and his creation. In this article author described his role in Tan's poetry, his character and opinions about poems.*

Li Bo (701- 762/ 763) Tan davri she'riyatining eng yirik namoyondasi Li Bo o'zidan 1100 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Shundan 900 tasi she'rlardan iborat. Uning 34 ta poemasi mashhur antologiya “Tan davrining 300 poemasi” kitobiga kiritilgan.

Li Bo boyluk, hukmronlik ketidan quvmagan, xalqparvar shoir bo'lgan. U hukmdorning maslahatchisi bo'lib, uni doimo to'g'rilik, yaxshilikka yetaklashni xohlardi. Ammo unda ozodlikka intilish, erkinlik ruhi juda kuchli edi. “Li Bo she'riyatning alangali va yorqin oqimida xalq ruhiyatining bor, cheksiz boyligini tasvirlay olgan shoir edi”<sup>1</sup>. Bejizga zamondoshlari u haqida: “- Li Boning beli qaddini bukishga bermaydigan- g'urur suyagidan bo'lgan”, deyishmagan. Uning hayoti sarguzashtlar, afsonalarga to'la. Aytishlaricha, uning onasi u tug'ilmasidan avval tushida katta oq yulduzni ko'radi. Shuning uchun ham unga Tay-bo (buyuk oqlik) degan ismni qo'yishadi. Bu ism esa keyinchalik tom ma'nosi bilan uning butun hayotiga uyg'unlashib ketadi.

《静夜思》 jing ye si 李白 li bai

床前月光 chuang qian ming yue guang  
疑是地上霜 yi shi di shang shuang  
举头望明月 ju tou wang ming yue  
低头思故乡 di tou si gu xiang...

**Yotog'im ustida Oyning shu'lasini  
Balki bu girovdir, o'zim bilmayman,  
Boshim tutib unga oynadan boqib,  
Boshim egib, Vatan, seni eslayman...**

(Usmonova D. tarjimasi)

Uning she'rlari o'zining sodda tilda yozilgani va oddiy kishilar ham tushuna olishi mumkin bo'lgan tarzda, ammo yurakka tez hamda chuqur kirib bora olishi bilan ham ko'pchilikning e'tiborini qozongan. Li Bo ijodida eng yetakchi obraz – “Oy” obrazidir. U o'z umri davomida mudom “Oy” ga intilib yashagan, undan ilhom olib ijod qilgan, “Oy” uning eng yaqin hamrohi, do'sti, qayg'ulariga sherik, quvonchli kunlarida yo'ldoshi, hayotining ajralmas bo'lagi bo'lgan. “Oy” unga doimo o'zining jonajon tug'ilgan o'lkasidan quvg'in qilingan, darbadar kezuvchi hayotini eslatardi. Shoir nazdida “Oy” nafaqat ayriliq, balki beminnat va mustahkam do'stlik ramzi, beg'uborlik va sadoqat timsoli edi. Li Boning she'rlarida bu badiiy obraz asosan “Vatan” timsolini ifodalaydi. O'n ikki asrdan uzoq vaqt o'tgan bo'lsa-da hali hanuz uning she'rlari, ayniqsa

<sup>1</sup> Алексеев В.М. Китайская литература (сборник “Литература востока” 2-ое издание Пг., 1920), 17-стр.

mashxur ”Sokin tun haqidagi o’ylar”i<sup>2</sup> davrlar osha insonlar ko’nglida yashab kelyapti. Bu she’rida shoir “Oy” obrazi talqinida bir vaqtning o’zida o’zining Vatanga bo’lgan cheksiz muhabbati, sog’inchini ifodalash bilan birga, “oy shu’la”sining o’zini “qirov”ga qiyoslaydi. Li Bo “yotog’im ustida oyning shu’lasi” badiiy ifodasini keltirish orqali o’zining tun-u kun Vatan haqida bedor o’y surayotganligini, “bu oyning nurlarimi yoki qirov” ya’ni sog’inch yoshlarimi “o’zim bilmayman”, deya juda go’zal va mohirona qalb tuyg’ularini tasvirlab bergani kishini lol qoldiradi. Uning “badiiy obrazlar zanjirini yaratish texnikasi” nihoyatda o’ziga xos, sodda va puxta ekanligiga har qanday adabiyotshunos tan berishi muqarrar. Bu haqida taniqli shoir do’ssti Du Fu ham ko’p bora ta’kidlab o’tgan.

美人卷珠簾 mei ren juan zhu lian  
深坐蹙蛾眉 shen zuo cu e wei  
但見淚痕濕 dan jian lei lang shi  
不知心恨誰 bu zhi xin hen shei?

**Durlar pardasini ko’tarib go’zal  
O’tirar kapalak qoshin chimirib  
Faqat ko’z yoshlarin yo’li ko’rinar,  
Yuragin og’ritgan kim lek bilmayman?**

Li Bo ushbu “Qayg’u” nomli she’rida 珠簾 *zhu lian* “durlar pardasi” deya o’ziga xos badiiy o’xshatmani keltirgan. Bu orqali u qizning ko’z yoshlarini ifodalagan. She’rida qizning qoshini 蛾眉 *e wei* “kapalak”ka qiyoslagani esa qizning nihoyatda go’zal va latofatli, nozik bir hilqat ekanligini o’quvchi ko’z o’ngida paydo qiladi go’yo... Qizning kapalak qoshlarini chimirib o’tirishi uning naqadar g’azablanayotganini bildiradi. Bu ifoda bilan Li Bo qahramonining nafaqat tashqi qiyofasi balki ruhiy holatini ham to’liq yoritib bergan.

Uning “Shuga borar yo’lim mushkul, mushkul- ko’kka yetmoqdan ham”, “Sariq daryo suvlari osmondan oqib o’tib, shoshgancha dengiz tomon ketadi”, “O, agar men bahor yog’dularini ushlab qololsaydim va ketishiga yo’l qo’ymay uni sen- olisdagi do’stinga tuxfa eta olsaydim” singari she’riy kosmik obrazlari o’quvchini huddi kundalik turmush hayotidan ko’tarib, mo’jizakor tabiatga tobora yaqinlashtiradi.

Bir so’z bilan aytganda, Li Bo ijodidagi badiiy obrazlar takrorlanmas va nihoyatda turli tuman bo’lib, bu shoironing ichki dunyosi juda go’zal iste’dodi benazir va chinakam o’lmas ijodkor ekanligidan dalolatdir. Shoir Li Bo ijodi Xitoy adabiyoti va madaniyati rivojiga beqiyos darajada hissa qo’shgan va u o’zidan keyin juda katta, sharqona lirik maktab yaratib ketgan desak, mubolag’a bo’lmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI (REFERENCES)

1. В.М Алексеев. Китайская литература (сборник “Литература востока” 2- ое издание Пг., 1920)
2. Л. Бежин. Ли Бо и Ду Фу (“Детская литература”, Москва 1987г)
3. 汉- 俄 次 典。上海： 商务印书馆， 1994 年。
4. СА Хашимова О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). - SO’NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 2022.
5. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.

<sup>2</sup> Бежин.Л. Ли Бо и Ду Фу (“Детская литература”, Москва 1987г), 49-стр.

6. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
7. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с* (p. 361).
8. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
9. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
10. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
11. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
12. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
13. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
14. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
15. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
16. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
17. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
18. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
19. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
20. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019